ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOTI MUZEYI ARXIV FONDINI TADQIQ ETISH
(Yoqubjon Is'hoqov arxivi misolida)

Alisher Xalimjonov Soyibjon o'g'li
Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi 2-kurs tayanch doktoranti
Email: alisherxalimjonov1994@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-0240-6016

Annotatsiya. *Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyoti muzeyida 187 ta yozuchi, adib, adabiyotshunos olimlarning ilmiy labaratoriyasining arxivi saqlanadi. Arxiv hujjatlarini yozuvchi, adib va olimlarning o 'zlari yoki avlodlari tomonidan tadqim qilingan. Bu arxiv hujjatlarining ayrimlari tavsif qilingan ayrimlari esa o 'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Shular qatorida adabiyotshunos, navoiyshunos, manbashunos Yoqubjon Is'hoqov arxivi kompleks tarzda yadqiq etildi. Arxiv hujjatlari katalogi tuzildi. Ilmiy labaratoriyasi o'rganildi.*

Kalit so 'zlar: *arxiv, hujjat, asarlar, tahrir, manba. Ilmiy labaratoriya.*

Abstract. *The Alisher Navoi State Museum of Literature houses the archives of the scholarly laboratories of 187 writers, authors, and literary scholars. These archival documents were donated by the writers, authors, and scholars themselves or by their descendants. Some of these archival collections have already been described, while others are still awaiting scholarly investigation. Among them is the archive of Yaqubjon Ishoqov, a literary scholar, Navoi studies specialist, and source studies researcher, which has been comprehensively studied. A catalogue of the archival documents has been compiled, and the materials of his scholarly laboratory have also been examined.*

Keywords: *archive, document, works, editing, source, scholarly laboratory.*

Аннотация. *В Государственном музее литературы имени Алишера Навои хранится архив научных лабораторий 187 писателей, литераторов и литературоведов. Архивные документы были переданы самими писателями, литераторами и учёными либо их потомками. Часть этих архивных фондов уже описана, тогда как другие ещё ожидают своих исследователей. В их числе комплексно исследован архив литературоведа, навоиведа и источниковеда Якубжона Исхакова. Составлен каталог архивных документов, а также изучены материалы его научной лаборатории.*

Ключевые слова: *архив, документ, труды, редактирование, источник, научная лаборатория.*

Kirish

Azim Toshkentning qoq markazida ulug ‘ o ‘zbek shoiri Alisher Navoiy nomidagi ko‘chada shu nomdagi muzey joylashgan. Muzeyda tarixiy eksponatlar bilan bir qatorda o‘zbek adabiyotining 150 yillik tarxini o‘zida jamlagan arxiv fondi ham mavjud. 187 ta yozuvchi, adib va adabiyotshunos olimlarning 1 million 4 yuz mingdan ortiq hujjat saqlanadi. Yozuvchilardan Maqsud Shayxzoda [1], , Abdulla Qahhor [2], Hakim Nazir, Turob To‘la, Laziz Qayumov, Turg’un Po‘lat [3] kabilarning arxiv hujatlari tavsiv qilinib nashr etilgan. Olimlardan Hamid Sulaymonov, Porso Shamsiyevlarning ijod labaratoriyalari tadqiq etildi. Shu qatorda olim Yoqubjon Is’hoqov arxivi kompleks tarzda ham tavsif, ham kataloglashtirsh, ham ilmiy labaratoriyasini o‘rganish orqali muzey fondidagi arxiv materialarini tadqiq etishda kichik bir qadam bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Arxivshunoslik metodi. Arxiv hujatlarining holati, qachon topshirilgani, turi o‘rganildi. Manbashunoslik tahlili orqali ilmiy asarlarining kelib chiqishi, sanasi, mazmuni va e’lon qilinmagan ishlari aniqlandi. Biografik, qiyosiy, bibliografik metodlar orqali olimning arxivi va ilmiy faoliyati kompleks tadqiq etildi.

Tahlillar va natijalar.

Davlat adabiyot muzeyi fondidagi Yoqubjon Is’hoqov arxivi 2025-yili o‘zi tomonidan taqdim etilgan edi. 2025-yil iyun oyidan boshlab arxiv materiallari tadqiq qilian boshlandi. So‘ngra tavsiflash va tasniflash orqali arxivdagi har bir hujjat quyidagi tartib bo‘yicha tavsiflandi:

- Hujjatning invertar raqami;
- Asar nomi;
- Janri;
- Yozuv uslubi;
- Qog’oz formati;
- Qisqacha izohi;
- Yozilgan yili;
- Hujjatlar soni;
- Hujjatlar miqdori. [4,p 10]

Olimning arxivida 188 ta hujat mavjud bo‘lib, ular 188 ta papkaga joylandi. Tartiblashda avval yirik asarlardan kichik asarlargacha: monografiyalar, kitoblar, maqolalar, qoralama nusxalar, qayd qog’ozlari va ko‘chirma varaqlar ketma-ketligiga amal qilindi. Masalan: “**1.“Alisher Navoiyning ilk lirikasi” monografiya.**Yoqubjon Is’hoqovning Alisher Navoiy yoshlik chog‘larini qamrab olgan ijodining ilmiy tadqiqi. Unda “Ilk devon” deya mashhur bo‘lgan qo‘lyozma devoni tadqiq etilgan.

Hujjat 21*30 sm formatli oq qog‘ozga yozilgan. Hujjatning ba’zi qismlari qora va ko‘k rangli siyohda tahrir qilingan. 134-155 sahifalar yo‘q. “Adabiyot muzeyi arxiviga”, deb yozilgan.

Mashinkada. Kirill yozuvida. O‘zbek tilida. Toshkent,1965-yil, 1 ta hujjat. 183 varaq”.[5]


Olimning ilmiy labaratoriyasini tadqiq etishda o‘zi tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlari bilan bir qatorda, nashrga tayyorlagan ammo nashr etilmagan maqolalri borligi ma’llum bo‘ldi. 80-yillar oxiriga kelganda olim Alisher Navoiy ensiklopediyasi uchun 20 dan ortiq maqola yozgan. Shu maqolalarni tahrirlab nashr uchun tayyorlagan, lekin u Navoiy qomusi nashri to‘xtab qolgani uchun nashr etilmay qolgan: “ **Yoqubjon Is’hoqovning “Navoiy qomusi” uchun yozgan maqolalari haqida.** 21*30 sm o‘lchamdagi oq qog‘ozda. Muallifi Ergash Ochilov. Qomus uchun 59 ta maqola tanlab olinganini qayd etgan. Sayfiddin Rafiddinov qabul qilib olganligini sana va imzo bilan qayd etgan.

Avtograf. Kirill yozuvida. O‘zbek tilida. 2020-yil. 1 ta hujjat. 7 varaq”.[6]

Yoqubjon Is’hoqovning o‘ziga xos tomoni shundaki, ensiklopediya uchun maqola tayyorlayotgan arab alifbosi uchun moslangan va arab alifbosidagi har bir harfning o‘zi anglatgan semantik ma’noni bergan maqolalar yozganligidadir. Masalan: **“Alif” harfining ofatlarining ibtidosi.** Olimning “Navoiy qomusi” uchun yozilgan maqolasi. Alif harfining Navoiy ijodidagi ma’nolarining izohi berilgan.

Hujjat 20*29,5 sm o‘lchmadagi oq qog‘ozda. Ko‘k va qizil siyohdada yozilgan. Hujjat yaxshi saqlangan.


Avtograf. Kirill yozuvida. O‘zbek tilida. Yili yo‘q. 1 ta hujjat. 1 v.



Yoqubjon Is’hoqov arxivini tadqiq etish jarayonida “Gul va Navro‘z” dostoniga oid qator hujjatlar aniqlandi. Tadqiqotga olim 1971-yil boshlaridan kirishgani va maqolani yil davomida tayyorlagani ma’lum bo‘ldi. “Gul va Navro‘z” dostoni muallifi masalasiga doir hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. Maqolaning turli tahrir etilgan varinatlari:
   - **“Gul va Navro‘z” muallfi haqida.** Maqola. Yoqubjon Is’hoqovning “Gul va Navro‘z” dostonining muallfi Haydar Xorazmiy ekanligi haqidagi maqola. Mashinkada. Kirill yozuvida. Rus tilida. Y.y. 1 ta hujjat. 25 v.[7]
   - **Lutfiy “Gul va Navro‘z”ni yozganmi?”, maqola.** Yoqubjon Is’hoqovning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1971-yil 5-soni uchun yozilgan maqola. Mashinkada. Kirill yozuvida. O‘zbek tilida. 1971-yil. 1 ta hujjat. 7 v. [8]
   - **“Gul va Navro‘z” dostonining muallifi masalasi”, maqola.** F.f.n. Yoqubjon Is’hoqovning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1972-yil 1-sonida chop etilgan maqolasi. Mashinkada. Kirill yozuvida. O‘zbek tilida. 1972-yil. 1 ta hujjat.17 v.[9]

- **Lutfiy “Gul va Navro‘z”ni yozganmi?”, maqola.** 132-raqamli hujjatning avtograf nusxasi. Avtograf. Kirill yozuvida. O‘zbek tilida. 1971-yil. 1 ta hujjat. 7 v.[10]
- **“Haydar Xorazmiy – “Gul va Navro‘z”ning haqiqiy muallifi”, maqola.** F.f.n. Yoqubjon Is’hoqovning shu masala yuzasidan yozgan maqolaning qoralama nusxasi. Mashinka va avtograf. Kirill yozuvida. O‘zbek tilida. 1971-yil. 1 ta hujjat. 18 v.[11]



ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ

1971 № 5


Ёқубжон Исҳоқов

ЛУТФИЙ "ГУЛ ВА НАВРЎЗ" НИ ЁЗГАНМИ?

Ҳар ғалат эр ўғлиға бир панд эрур,
Ўз ғалатин билса, хирандманд эрур.

Ҳайдар Хоразмий


Совет ҳокимияти йилларида революциягача бўлган ўзбек адабиёти тарихини тадқиқ этиш борасида муҳим ишлар амалга оширилди. Бу давр-да адабиётимиз тарихининг назарий масалаларига бағишланган илмий тадқиқот ишлари билан бир қаторда кўп асрлик адабиётимизнинг энг яхши намуналарини кенг оммага етказиш соҳасида ҳам жиддий ютуқлар-га эришилди. Хусусан қўлёзма нусхалари жуда кам тарқалган ёки



Якуб Исхаков

К ПРОБЛЕМЕ АВТОРСТВА ПОЭМЫ "ГУЛ И НАВРУЗ"

За годы советской власти проделана важная работа по изучению истории узбекской литературы дореволюционного периода. Наряду с появлением научно-исследовательских работ, посвященных историко-теоретическим проблемам, в эти же годы ведется широкая пропаганда лучших образцов многовековой узбекской литературы. Особого одоб-



Ayni paytda olimning arxiv hujjatlari va nashr etilgan asarlaridagi matniy tafovutlar va tahrirlangan o‘rinlar ko‘rib chiqilmoqda.

Xulosa

Olimning arxivi tadqiq etish orqali arxiv hujjatlari katalogi tuzildi. Asarlarining yaratilish tarixi bilan tanishildi. E’lon qilinmagan ilmiy ishlari aniqlandi va nashr uchun zamonaviy imlo qoidalariga muvofiq tahrirlandi. Ilmiy labaratoriyasini o‘ziga xos tomonlari aniqlandi. Bu kichik tadqiqot orqali Alisher Navoiy muzeyidagi 187 ta ijodkorning arxivini tadqiq etish yo‘lidagi kichik bir sinov tariqasidagi ilmiy desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov S. (compiler). Maqsud Shayxzoda arxivi: katalog. Tashkent, 1985.
2. Hasanov S. (complier). Abdulla Qahhor hujjatlar tavsifi. Toshkent, 1986.
3. Alimova X. (nashrga tayyorlovchi). Hakim Nazir, Turob To‘la, Laziz Qayumov, Turg’un Po‘lat arxivining katalogi. Toshkent, 1992.
4. **Xalimjonov A.** *Yoqubjon Is’hoqov ilmiy faoliyati va arxivi*. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, 2026. Zenodo. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20209109.
5. **Is’hoqov, Yoqubjon.** “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” 1, yig‘majild 5, hujjat. 188-bet. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi arxivi, Toshkent.
6. **Is’hoqov, Yoqubjon.** “Navoiy qomusi uchun yozgan maqolalri” 3, yig‘majild, 1 ta hujjat. 7 bet. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi arxivi, Toshkent.

7. Davlat adabiyoti muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 131-hujjat.
8. Davlat adabiyoti muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 132-hujjat.
9. Davlat adabiyoti muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 133-hujjat.
10. Davlat adabiyoti muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 134-hujjat.
11. Davlat adabiyoti muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 135-hujjat.